

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA UNING XUSUSIYATLARI

Madaminov Zafarjon*Farg‘ona davlat universiteti, Geografiya kafedrası dotsenti, PhD*zafarjonmadaminov@gmail.com**Jabborova Marhaboxon Asqarali qizi***Farg‘ona davlat universiteti, Geografiya yo‘nalishi talabasi.*

Oziq-ovqat xavfsizligi va uning geografik xususiyatlar. Ushbu maqolada oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi, uning mohiyati hamda global va mintaqaviy darajadagi geografik xususiyatlari tahlil qilingan. Dunyo miqyosida oziq-ovqat ta‘minotiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar — tabiiy resurslar, iqlim sharoitlari, aholi sonining o‘sishi, iqtisodiy imkoniyatlar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining hududiy farqlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekiston misolida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdagi hududiy xususiyatlar, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda geografik omillarni kompleks tahlil etish va ularni rejalashtirish siyosatiga kiritish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, geografik omillar, qishloq xo‘jaligi, resurslar, iqlim, O‘zbekiston.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие продовольственной безопасности, её сущность, а также географические особенности на глобальном и региональном уровнях. Анализируются основные факторы, влияющие на обеспечение продовольствием в мире — природные ресурсы, климатические условия, рост численности населения, экономические возможности и территориальные различия в сельскохозяйственном производстве. Кроме того, на примере Узбекистана раскрыты региональные особенности обеспечения продовольственной безопасности, существующие проблемы и пути их решения. Результаты исследования показывают необходимость комплексного анализа географических факторов и их учёта в политике планирования для укрепления продовольственной безопасности.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, географические факторы, сельское хозяйство, ресурсы, климат, Узбекистан.

Annatatsion. This article analyzes the concept of food security, its essence, and the geographical features at global and regional levels. The main factors affecting food supply worldwide — natural resources, climatic conditions, population growth, economic capacities, and regional differences in agricultural production — are examined. The case of Uzbekistan highlights regional characteristics of ensuring food security, existing problems,

and possible solutions. The results of the study demonstrate the necessity of a comprehensive analysis of geographical factors and their integration into planning policies to strengthen food security.

Keywords: *food security, geographical factors, agriculture, resources, climate, Uzbekistan.*

Kirish: Hozirgi davrda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi insoniyat taraqqiyotining eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aholi sonining jadal o‘shishi, iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda global iqtisodiy beqarorlik sharoitida har bir davlat uchun aholini yetarli, sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash masalasi ustuvor vazifaga aylangan. Oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki ijtimoiy farovonlik, sog‘lom turmush tarzi va milliy xavfsizlikni ta‘minlovchi muhim omildir. Geografik yondashuv oziq-ovqat xavfsizligini o‘rganishda alohida o‘rin tutadi, chunki tabiiy sharoit, iqlim, suv va yer resurslari, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining hududiy tashkil etilishi bevosita oziq-ovqat ta‘minoti darajasiga ta‘sir etadi. Shu boisdan, oziq-ovqat xavfsizligini tahlil qilishda uning geografik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, hududlararo tafovutlarni aniqlash va resurslardan oqilona foydalanish masalalariga alohida e‘tibor qaratish lozim. Ushbu maqolada oziq-ovqat xavfsizligining mazmun-mohiyati, unga ta‘sir etuvchi omillar hamda O‘zbekiston sharoitida bu jarayonning hududiy xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqsad — oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda geografik omillarning rolini aniqlash va mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat. Quyida Shavkat Mirziyoyevning oziq-ovqat xavfsizligi haqidagi bayonotlari hamda ushbu mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy va o‘quv adabiyotlari haqida ma‘lumotlar berilgan. Prezident Mirziyoyev 2024 yil 25 noyabrda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan takliflar bilan tanishganini ma‘lum qilgan. U so‘zlagan nutqlarda aholi sonining tez o‘shishi, yer-va-suv resurslarining cheklanganligi, ichki bozorni barqaror oziq-ovqat bilan ta‘minlash ahamiyati alohida ta‘kidlangan. “Oziq-ovqat xavfsizligi — eng dolzarb masala” deb belgilangan.

Quyida oziq-ovqat xavfsizligi mavzusida O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan konferensiya va forumlar haqida ma‘lumotlari keltirilgan: International Conference on Food Security (7-8 sentyabr 2023, Samarqand, O‘zbekiston). Ushbu konferensiya 2023 yil 7-8 sentyabr kunlari Samarqand shahrida o‘tkazilgan. Bosh mavzular qatorida: tom-orali davlatlarda oziq-ovqat tizimlarining barqarorligi, sog‘lom oziq-ovqatga kirish, suv va oziq-ovqat xavfsizligi hamda agrifood savdosi masalalari muhokama qilingan. Konferensiyada 32+ davlatdan mutaxassislar ishtirok etgani qayd etilgan. International Forum on Landlocked Developing

Countries: Food Security and the Sustainable Development Goals (5-6 sentyabr 2024, Toshkent, O‘zbekiston). Ushbu forum Toshkent shahrida 2024 yil 5-6 sentyabr kunlari o‘tkazilgan. Forumning maqsadi – dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlarda (landlocked countries) oziq-ovqat xavfsizligi, agrifood tizimlari, iqlimga moslashuv, logistika masalalarini muhokama qilish. Bosh ishtirokchilar: O‘zbekiston Bosh vaziri, Food and Agriculture Organization (FAO) direktori, xalqaro moliyaviy tashkilotlar vakillari va boshqa ekspertlar. International Scientific Conference on Ensuring Food Security through Genetic Resources and Modern Cultivation Technologies (10-11 may 2024, Qarshi, O‘zbekiston). Ushbu ilmiy konferensiya 2024 yil 10-11 may kunlari Qarshi shahrida o‘tkazilgan. Mavzu: genetik resurslar, zamonaviy dehqonchilik texnologiyalari orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash. Markaziy Osiyo mamlakatlari kontekstida maxsus muhokama qilingan. Don-qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining muhim mahsuloti, inson oziqasining asosi, mahsuldor chorvachilikni rivojlantirish uchun yem-xashak bazasi hisoblanadi. Don ekinlarining o‘ziga xos tomoni inson organizmi uchun o‘ta qimmatli organik moddalarni sintezlashdan iborat. Donda boshqa dehqonchilik mahsulotlariga qaraganda ko‘p miqdorda quruq moddalar mavjud bo‘lib, yetilgan don massasining 85 %ini tashkil qiladi. Bular asosan, yuqori qiymatga ega bo‘lgan oqsil moddalari, hazm bo‘ladigan uglevodlardir. Donli ekinlar doni tarkibida 10-15%, dukkakli ekinlar doni tarkibida 28-30% yuqori sifatli oqsil mavjud.

Xulosa. Oziq-ovqat xavfsizligi masalasi zamonaviy davrda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ekologik va siyosiy barqarorlikning muhim omili sifatida qaraladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda tabiiy resurslar, iqlim sharoitlari, yer va suvdan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining hududiy joylashuvi hamda davlatning agrar siyosati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiya qilish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish zarur. Shuningdek, hududlar kesimida resurslardan samarali foydalanish, logistika va saqlash tizimini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash – xalqimiz farovonligi va mustaqil taraqqiyotimizning asosi” hisoblanadi. Shu bois, oziq-ovqat xavfsizligini geografik yondashuv asosida o‘rganish va hududiy farqlarni inobatga olgan holda rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezidentimiz Mirziyoyev 2024-yil 25-noyabrda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan takliflar bilan tanishganini ma'lum qilgan.
2. "Oziq-ovqat xavfsizligi: milliy va global muammolar"-O'zbekistonda chiqarilgan ilmiy jurnal.
3. M.G'.Vasiyev, Q.O.Dadayev, In.B.Isaboyev, Z.Sh.Sapayeva, Z.J.G'ulomova "Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari".